

 [Скачать страницу в PDF \(52 Kb\)](#)  [Версия](#)  [Скачать страницу в doc \(52 KB\)](#)

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 fevraldagi «O`zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida»gi 134-sonli qarori haqida

(«O`zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o`z kuchini yo`qotgan deb topish to`g`risida» O`zbekiston Respublikasining 2017 yil 14 sentyabrdagi O`RQ-446-son Qonuni)

«O`zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o`z kuchini yo`qotgan deb topish to`g`risida» O`zbekiston Respublikasining 2017 yil 14 sentyabrdagi O`RQ-446-son Qonuni ijrosini ta`minlash maqsadida Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

- O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 fevraldagi «O`zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida»gi 134-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.
- Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:
 - O`zbekiston Respublikasi Hukumatining ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritilganligi;
 - vazirliklar va idoralar uzlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirish topshirilganligi ma`lumot uchun qabul qilinsin.
- Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashining ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritilsin.
- Vazirliklar va idoralar uzlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.
- Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Vazirlar Kengashi Raisining o`rinbosari M.Jumanovga yuklansin.

Qoraqalpog`iston Respublikasi

Vazirlar Kengashining Raisi

Q.Sariev

Просмотров:

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)

Hujjatlar Respublika
mehmonlariga Elektron
hukumat Interaktiv davlat
xizmatlar